

VOLUME II | ISSUE 1 | JANUARY

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, I-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-1>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

TALIPOV Nigmatjon Nozimovich*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**Tasviriy san'at kafedrasida**dotsent vazifasini bajaruvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10486747>

AMALIY SAN'AT DARSLARIDA NAQSH KOMPOZITSIYALARINI CHIZISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola amaliy san'atning rivojlanish davrlari, pedagogika oliy o'quv yurtlarida amaliy san'atni o'qitish jarayonlari, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining uyg'unligi, ta'lim mazmunini badiiy-estetik va hayotiy tajribalarga asoslangan o'quv materiallari bilan tizimlashtirish bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni tarkib toptirish hamda kompozitsiya qonun-qoidalari, ularga rioya qilish orqali naqsh elementlaridan mo'jaz san'at asarlarini yaratish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: naqqoshlik, kompozitsiya, rang t uslari, rang koloriti, proporsiya, rang uyg'unligi, kontras, komponovka, ritm, stilizatsiya, simmetriya, asimmetriya, nisbat, hajm, yakka band, rapport, qo'sh band.

РИСОВАНИЯ КОМПОЗИЦИИ УЗОРОВ НА УРОКАХ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны периоды развития прикладного искусства, процессы преподавания прикладного искусства в высших педагогических учебных заведениях, гармония учебной и производственной практики в процессе подготовки педагогических кадров, учебные материалы, основанные на художественно-эстетическом и жизненном опыте. Благодаря систематизации будущие учителя прикладного искусства задумались о формировании художественно-эстетической компетентности и создании из элементов узора замечательных произведений искусства, следуя правилам композиции.

Ключевые слова: роспись, композиция, цветовые оттенки, цветовой колорит, пропорция, цветовая гармония, контраст, компоновка, ритм, стилизация, симметрия, асимметрия, пропорция, объём, одно ветвь, раппорт, двойное ветвь.

DRAWING PATTERN COMPOSITIONS IN APPLIED ARTS LESSONS

ANNOTATION

This article describes the periods of development of applied art, the processes of teaching applied art in higher pedagogical educational institutions, the harmony of educational and production practice in the process of training teachers, educational materials based on artistic, aesthetic and life experience. Thanks to systematization, future teachers of applied art began to think about the formation of artistic and aesthetic competence and the creation of wonderful works of art from pattern elements, following the rules of composition.

Key words: painting, composition, color shades, color scheme, proportion, color harmony, contrast, arrangement, rhythm, stylization, symmetry, asymmetry, proportion, volume, single branch, rapport, double branch.

*Sayyoramizning ertangi kuni, faravonligi farzandlarimiz
qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.
Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini
namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratishdan
iborat [1].*

Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining uyg'unligi, ta'lim mazmunini badiiy-estetik va hayotiy tajribalarga asoslangan o'quv materiallari bilan tizimlashtirish bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni tarkib toptirish art-texnologiyalarini rivojlantirishni talab etadi. Bolonya jarayoni mutaxassislar tayyorlash mazmunini integratsiyalash, ta'limdagi hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida bitiruvchilarda umumiy va maxsus, shu jumladan, badiiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishni taqazo etmoqda. AQSh, Germaniya, Angliya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarda bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv jarayoni kasbiy bilim va malakalarni tarkib toptirish bilan birga, yuksak badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirishga asoslangan holda tashkil etilishi muhim vazifa etib belgilangan.

Insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari kundan-kun o'zgarib, takomillashib olamni anglashning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga yuz tutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zlarining "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" deb nomlangan nutqlarida - "*Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanagan holda - o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat*" [2] deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Darhaqiqat, ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi.

Inson omillarining yuqorilab borishi, uning hayotiy sharoitlarini, hatto o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat ta'limning hozirgi zamonda umumiy asosiy mezoniga aylandi. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi. Biroq, ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak amaliy san'at o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirishning innovatsion modellarini joriy etish, badiiy-estetik faoliyatga tayyorlashning komponentlari va omillarini aniqlashtirish, integratsion yondashuv asosida ularda badiiy-estetik kompetensiyalarni shakllantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, axloqiy-insonparvar tarbiyaning asosiy vositasi sifatida badiiy-estetik kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, shaxsiy, madaniy turmush va badiiy-estetik tajribaning uyg'unligini ta'minlash, obrazli fikrlashning asosi sifatida badiiy ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo xalqlarining qo'l mehnatiga bo'lgan qiziqishlari kun sayin ortib, go'zallikka bo'lgan munosabatlar rivojlanib borishi, jumladan, o'zbek xalq amaliy bezak san'ati va uning turlariga bo'lgan ishtiyoq san'at ixlosmandlarining kundalik hayotidan yanada chuqurroq o'rin egallamoqda. Yog'och va ganch o'ymakorligi, lokli miniatyura, naqqoshlik kabi turlari kishilar hayotini yanada go'zallashtirib, ma'naviy olamini boyitib, hayotga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu esa amaliy bezak san'atining yanada rivojlanib, takomillashib borishida muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Naqqoshlik san'atining asosiy va murakkab bosqichlaridan biri bu, naqsh kompozitsiyasini tuzishdan iborat. Naqsh kompozitsiyalari yakka (yakraftor) va qo'sh bandli (duraftor yoki qo'shraftor) novdalar ko'rinishida amalga oshiriladi. Naqshlar o'zining rang va elementlar jihatidan qo'llanilishiga ko'ra ramziy ma'no va mazmun kasb etadi. Naqsh kompozitsiyalarini tuzishni o'rganishda ma'lum tartib va qoidalarga amal qilinadi hamda oddiydan murakkab tomon o'rganib boriladi. Albatta, naqsh kompozitsiyalarida rang tuslarining ham alohida o'rni bor. Naqqoshlik san'atida naqsh elementlari, bezaklar, turli-tuman shakllar, kompozitsiya qonuniyatlaridan tashqari uni bo'yashda qo'llaniladigan bo'yoq turlari, ularning o'ziga hos xususiyatlari, rang tuslari, rang koloriti, ranglarning hamohangligi va shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalq hunarmand ustalari tomonidan ishlangan naqsh namunalarini o'rganadigan bo'lsak, ularning u yoki bu rang tuslariga bo'ysundirilganligini, ya'ni rang koloritiga ta'sirida bajarilganligini guvohi bo'lamiz. Shunga ko'ra jigar rang, zumrad rang, havo rang, feruza rang, yashil rang, binafsha rang va shu kabi ranglar muhitida bajarilgan naqsh kompozitsiyalari loyihalashtirilgan. Tuzilgan naqsh kompozitsiyalarini bo'yashda bir rangning bir necha xil tuslaridan foydalaniladi, bunda oq bo'yoq rang tuslarini tayyorlashda asosiy vazifani bajaradi va o'z navbatida bitta naqsh kompozitsiyasi bir nechta koloritda bo'lishi ham mumkin.

"Ranglar va ularning tuslari badiiy naqsh koloritini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra rang muhitini biror bir aniq rang koloritiga buysundiriladi. Masalan jigar rang, havo rang, sarg'ish yoki qizil ranglar muhitida ishlangan naqsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

Naqsh kompozitsiyalari bo'lak (rapport)lardan tashkil topishi bilan birgalikda ritmik takrorlanib keladi. Naqqosh ustalar o'z ijodlarida islimiy, girih va murakkab turlaridagi naqsh kompozitsiyalaridan keng foydalanadilar" [6, B.9].

Islimiy naqshlar tabiatdan novda elementlarining bir tomonlama harakatlanib o'suvchanlikni anglatganligi sababli yuguruvchi deb ham ataladi. Jumladan, majnuntol, chirmovuc va shu kabi o'simlik elementlari aks ettirilgan naqshlarni kuzatar ekanmiz, ko'z ilg'amas jimjimali novda yo'llari tabiatdagi singari bir tomonga harakatlanib chizilganligini yaqqol sezishimiz mumkin.

Naqsh elementlarning o'zaro bir biri bilan bog'lanib - birikib borishi mutanosiblikni tashkil etadi va naqsh kompozitsiyasining butun bir yaxlitligini ta'minlaydi. Naqqoshlik san'atiga ixlos qo'ygan har bir yosh, avvalo naqsh chizishni o'rganish davomida naqsh tuzishda foydalaniladigan elementlarni chizish orqali mashq qilishdan boshlashi kerak. Odatda o'simliksimon naqsh elementlarini chizish, ularni guruhlarga bo'lib olingan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Masalan: barg, gul, band, marg'ula, sirtmoq va boshqa elementlarni osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon chizib mashq qilish lozim. Chizishdan oldin qog'ozni yuzasiga qora qalam bilan engil yurgazib sxematik kataklar ichiga naqsh elementlarini chizishdan boshlanadi.

Daftarning har bir betiga xuddi boshlang'ich sinflarda harflarni mashq qilgan kabi bitta elementni to yaxshi chizmaguncha qayta-qayta chizib o'rganadilar. Mashqlar davomida simmetriya va asimmetriya qoidalariga alohida e'tibor qaratiladi.


Naqsh elementlarini chizishni o'zlashtirilib, rovon chiza boshlagandan so'ng, yo'l ichidagi oddiy naqsh namunalari chizishga o'tiladi. Dastlab yo'l ichidagi naqshlarni chizish uchun albom yuzasiga kompozitsiyani umumiy o'lchami olinib, katakli taqsimlar chizilib, yordamchi chiziqlar o'tkaziladi.

Yo'l ichidagi naqshlar odatda davom etuvchi hoshiya naqshi hisoblanadi (1-rasm). Bu naqshni chizish uchun avval tanlangan o'lchamdagi yo'l, to'g'ri to'rtburchak chizib olinadi naqshni davom etishi rejalashtirilib taqsimlarga ajratilib naqsh chiziladi. Shuni ta'kidlash lozimki, sinchkovlik bilan o'rganib tahlil qiladigan bo'lsak, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni umumlashtirib olinganligiga guvohi bo'lamiz.




1-rasm

Kvadrat ichiga naqsh chizish uchun esa, teng tomonli to'rtburchak o'lcham chizib olinadi va naqshni joylashishiga qarab bo'laklarga bo'linadi, kvadrat ichidagi naqshlar tugallangan bo'ladi, chunki naqsh ana shunday o'lchamdagi yuzalarga moslab eskiz qilinadi (2-rasm).




2-rasm

Uchburchak naqshi ham boshqa naqshlar singari yuzaga mo'ljallab tuziladi, agar yo'l naqshiga ulanishi lozim bo'lsa burchakdagi naqsh unga o'xshash elementlar va shakllardan iborat bo'lishi kerak, aks holda mos kelmaydi (3-rasm).



3-rasm

Doira ichidagi naqsh ko'p hollarda yuzalarning o'rtasiga moslab chiziladi. Aylana kerakli o'lchamdagi diametrda chizib olinadi va uning yuzasiga naqsh kompozitsiya qilish uchun yuqoridagi kabi taqsimlar bo'ylab naqsh chiziladi (4-rasm).



4-rasm

Naqqoshlikda kompozitsiya tuzish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'zining bir necha qonun-qoidalariga binoan tuziladi - davriy takrorlanish (ritm), mutanosiblik (proporsiya), simmetriya va markaz topish, stilizatsiya (qayta ishlash), eng chiroyli uzviylik (garmoniya), rang uyg'unligi va o'zaro yorqinlik (kontras).

Kompanovka - naqsh kompozitsiyasini yuza sirtiga to'g'ri joylashtirish.

Ritm - naqsh elementlarini ma'lum masofada bir tekisda davriy takrorlanib kelishi.

Stilizatsiya - tabiatdagi o'simlik, hayvonot dunyosi va turli jismlarni badiiy usulda sodda holatda tasvirlash.

Simmetriya - ma'lum chiziq yoki nuqtaga nisbatan o'lchovlarning bir-biriga munosibligi.

Asimmetriya - kompozitsiyada simmetriya muvozanatining buzilishi.

“Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki bo'yash, o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o'ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda xoh bo'yashda bo'lsin, xoh o'yishda bo'lsin yoki pardoz berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi” [4, B.57,58].

Xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalariga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan bo'lib, haqiqatdan ham o'simliklarning faqat bir tomonga qarab o'sishi inobatga olingan. Masalan: majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyiladi. Lekin novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib keladi [13, B.20].

Naqsh ishlash jarayonida o'quvchilar quyidagilarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur:

- atrof muhitdagi, tabiatda mavjud bo'lgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya'ni stilizatsiyalash yo'llarini bilishlari, undan samarali foydalana olishlari;

- berilgan naqsh elementlari yoki namuna asosida yangi naqsh kompozitsiyasini tuza olishlari;

- mustaqil ravishda yangi naqsh kompozitsiyasini tuza oladigan bo'lishlari kerak.

Naqsh elementlari bilan tanishtiruv mashg'ulotlarida o'qituvchi talabalarni o'zi bilan tabiat qo'yniga sayohatga olib chiqadilar va mashg'ulotlarda o'rgangan nazariy hamda amaliy bilim, ko'nikma va malakalari asosida, atrofdagi barcha o'simliklar, hayvonot dunyosini kuzatadilar va “stilizatsiyalashtirish” orqali ularning badiiy tasvirini, ketma-ketlik asosida tuzulgan rangli yoki oq-qora fotosuratlardan va ko'rgazmali qurollardan foydalanish orqali tushunchalar berish ham yaxshi natija beradi [15, B.610].

Har bir usta biror badiiy bezak ishini bajarganda bevosita u yoki bu naqshlar tasvirini ishlashiga to'g'ri keladi. Ular naqsh elementlarini amaliy san'at namunalaridan olishadi yoki mustaqil ravishda tabiiy yoki geometrik shakllarni stilizatsiya qilib ishlatishadi [8, B.11].

Naqsh kompozitsiyasini tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?

a) naqsh elementlarini o'zaro nisbatini saqlash;

b) tanlangan shaklga mos naqsh kompozitsiyasini tuzish;

d) tanob shaklini asosiy o'rinda bo'rttirib tasvirlash;

e) kompozitsiyadagi gul, barg, bofta kabi elementlarni novda harakatiga mos ravishda tasvirlash.

Stilizatsiya ikki xil yo'l bilan bajariladi. Birinchisi narsalar shaklini soddalashtirish bo'lsa, ikkinchisi esa narsa shakliga ba'zi qo'shimcha chiziqlar qo'shish orqali murakkablashtiriladi (5-6-rasmlar). Har ikkala usulda ham biz faqat narsalar tasviri yoki naqshning tuzilishini soddalashtirib yoki murakkablashtirilishini emas, balki ularning ranglari ham o'zgartirilishini tushunamiz. Xuddi shunday ustalar ijodida hayotda uchraydigan, naqsh qilib ishlashga qulay ko'rinishga ega bo'lgan narsalar stilizatsiya (badiylashtirish) qilinib, ularni amaliy san'at buyumlari yuzasini bezatishda qo'llaganlar [16, B.232].

Naqsh elementlarning o‘zaro bir biri bilan bog‘lanib - birikib borishi mutanosiblikni tashkil etadi va naqsh kompozitsiyasining butun bir yaxlitligini ta‘minlaydi [7, 3.B].

Naqqoshlik san‘atiga ixlos qo‘ygan har bir yosh, avvalo naqsh chizishni o‘rganish davomida naqsh tuzishda foydalaniladigan elementlarni chizish orqali mashq qilishdan boshlashi kerak [9, B.105].



5-rasm

Shunga alohida e‘tibor berish kerakki, har bir naqsh elementini chizayotganda oltin kesim qoidasiga amal qilgan holda nisbatlarni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiya tuzishda foydalanilgan husn beruvchi, bog‘lovchi va to‘ldiruvchi naqsh elementlarining qaysidir birida nisbat kichikroq yoki aksincha, kattaroq olinadigan bo‘lsa, avvalo naqsh kompozitsiyasi tuzish komponenti buziladi, qolaversa kompozitsiyaning jozibadorligiga putur etadi, san‘at ixlosmandlariga ko‘rimsizdek tuyuladi [10, B.148]. Aslida esa naqqosh-ustalar kompozitsiya qonun-qoidalari buzilganligini darhol payqaydilar.



6-rasm

Tajribali naqqosh-ustalar kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olishadi, ya'ni buyumning qanday xomashyodan tayyorlanganligiga qarab naqsh kompozitsiyasini loyihalashtiradilar. Bu hol ayniqsa, yog'och o'ymakorligida badiiy ishlov berish jarayonida muhim sanaladi. Sababi yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin bo'ladi [12, B.224].

Naqqosh-ustalar kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida, albatta shakl va kompozitsiya zaminini ranglash ketma-ketligi va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart [13, B.364].

Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu ketma-ketlikni amalga oshirishda dastavval naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. Shundan so'ng, mazkur qoralama asosida har bir bo'lakka ishlov beriladi va uning nusxasi kerakli joylarga ko'chiriladi [14, B.28]. Shu tariqa yaxlit naqsh kompozitsiyasi tuziladi.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. -Nyu-York: 2017-yil, 19-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016, -20 b.
3. Gulyamov K.M. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2008, 112 b.
4. Muratov X.X., Jabbarov R.R. Amaliy va badiiy bezak san’ati. - T.: Ijod-print, 2020, 160 b.
5. Talipov N. N. Naqsh elementlarini loyihalash. T., 2023, 130 b.
6. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. -T.: Iqtisod-Moliya, 2007, 102 b.
7. Makhkamova Saodat Bakhtiyarovna THE FORMATION OF VISUAL ARTS SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN PERFORMING SKETCH, COMPOSITION AND CREATIVE WORKS//European Journal of Arts. 2024.№1. URL: <https://ppublishing.org/archive/publication/894-the-formation-of-visual-arts-skills-of-school>
8. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – C.11–14. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14>
9. MAXKAMOVA, S. (2023). TASVIRIY SAN’AT ASARLARINI BADIY TAXLIL QILISHDA RASSOM KAMOLIDDIN BEXZOD IJODIDAN FOYDALANISH MASALALARI. *Journal of Culture and Art*, 1(8), 107–114. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/767>
10. Makxkamova Saodat Baxtiyarovna. (2023). The Role and Significance of Composition in the Fine Arts in Forming the Professional Competence of Future Fine Arts Teachers. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 147–153. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3826>
11. Maxkamova Saodat Baxtiyarovna, (2022). PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC ANALYSIS OF LANDSCAPE WORK IN SCHOOL. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(03), 21–28. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crip-03-03-06>
12. Maxkamova S. B. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПОЗИЦИИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 222–230. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1017>
13. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364–367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
14. Talipov N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
15. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. *Общество и инновации*, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
16. Talipov Nigmatjon Nozimovich, Yuldasheva Nilufar Ibrahimovna, Jabbarov Rustam Ravshanovich, (2020). Development of Student’s Creative Abilities in The Fine Arts in The Higher Education System. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 232–238. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-30>